



## “SEMEMA VA UNING TARKIBIY QISMLARI”NI TAHLIL ETISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

*Jiyanova N.*

*O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası f.f.n., dotsent*

*Maksumova S.*

*f.f.n., dotsent p.f.f.d. (PhD)*

*Salisheva Z.*

*dotsent*

**Tayanch so‘zlar:** axborot, texnologiya, grafik organayzerlar, klaster, B-B-B chizmasi, T-chizma, Venn diagrammasi, konseptual jadval, insert jadvali, “Qanday?” diagrammasi, baliq skeleti, toifalash jadvali, nilufar guli.

**Ключевые слова:** информация, технология, графические органайзеры, кластер, диаграмма Б-В-В, Т-диаграмма, диаграмма Венна, концептуальная диаграмма, диаграмма-вставка, «Как?» схема, скелет рыбы, классификационная таблица, цветок лилии.

**Key words:** information, technology, graphic organizers, cluster, B-B-B diagram, T-diagram, Venn diagram, concept table, insert table, "How?" diagram, fish skeleton, classification table, lily flower.

Biz bugun ilmiy-taraqqiyot asrida yashamoqdamiz. Shunday ekan ta’lim jarayoni ham shu asosida qurilmog‘i lozim. Hozirgi kunda o‘qitish tizimini zamonaviy pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Har bir fanda ta’lim beruvchi mavzularga mos holda ulardan o‘rinli foydalanishi zarur. Demak, ta’lim oluvchini dars jarayonidagi faolligi ta’lim beruvchining fan mavzularini tahlil etishda nimalardan, qanday usulda foydalanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham dars samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishimiz muhimdir.

Shunday ta’lim texnologiyalaridan biri bu grafik organayzrlardir. Ulardan foydalanishda ta’lim oluvchining yoshi, qiziqishlari ham inobatga olinishi va mosini fan mavzulariga tatbiq etgan holda foydalanish zarur. Grafik



organayzerlar zamonaviy pedagogik texnologiyaning bir turi sifatida ta'lim jarayonida foydalaniladi.

**Grafik organayzerlar** – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar tuzilma. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa **vosita vazifasini**, talabalarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, **metod vazifasini** bajaradi.[9]

Grafik organayzerlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

“Klaster”, “B-B-B chizmasi”, “T-chizma”, “Venn diagrammasi”, “Konseptual jadval”, “Insert jadvali”, “Nima uchun?” chizmasi”, “Qanday?” diagrammasi, “Baliq skeleti”, “Toifalash jadvali”, “Nilufar guli”.

O'quv jarayoniga munosabatiga ko'ra grafik organayzerlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalariga: “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Konseptual jadval”, “Insert”, “B/B/B jadvali” kiradi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalariga: “T-jadvali”, “Venn diagrammasi” kiradi.

3. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usul va vositalariga: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” iyerarxik diagrammasi kiradi. [10]


“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchi (tinglovchi va talabalar)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'tasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Klaster bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.


**Qayta esga tushirishga yo'naltirilgan klaster.** [6] Mazkurturdagi klasterdan mashg'ulotning chaqiriq bosqichida talabalarda mavzuni o'rganishga doir qiziqishlarini oshirish va faollashtirish hamda ular bilan birgalikda mashg'ulot mavzusini aniqlashtirish maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu klaster quyidagi tartibda tuziladi: mavzuni, mavzuning asosiy tushunchasini yoki muhokama predmetini aniqlashtirish uchun doskaning o'rtasiga chizilgan doira ichiga so'roq belgisi qo'yiladi yoki ochiq qoldiriladi. Masalan, mashg'ulotning chaqiriq bosqichida o'qituvchi talabalarga quyidagi klasterni taqdim etadi



va mavzuning nomlanishini aytishni soʻraydi. “Semama va uning tarkibiy qismlari” boʻyicha oʻtiladigan mavzuda tayanch tushunchalar ketma-ketligini berish orqali ham jalb etish mumkin.



**Topshiriq. Ushbu klasterni javobini toping.** Bunda taʼlim oluvchi semasiologiya terminiga izoh beradi. Uning tarkibida oʻrganilishi kerak boʻlgan leksema va semema haqidagi nazariy bilimlari asosida semalarini topib tahlil etadi. Shuningdek, badiiy matnlardan sememaning semalariga misollar topib izohlashadi.





Mavzuni mustahkamlashda “**Tushunchalar tahlili**” metodidan foydalanish mumkin. Bu metod talabaning xotirasini mustahkamlashga, o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholashga, e‘tibor qaratilmagan tomonlarini qayta o‘rganishga da’vat etadi. Shuningdek, bir mavzu bo‘yicha barcha ilmiy terminlarning izohini o‘rganib olishlariga yordam beradi. Bu esa so‘zning (leksema, semema va semalarni) mohiyatini, leksik ma’nosini bilib olish imkoniyatini beradi.

**Topshiriq** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. O‘qituvchingiz bergan qo‘shimcha ma’lumotlarni 3-ustunga yozib oling.

1	2	3
Tushunchalar	Izohi	Qo‘shimcha ma’lumotlar
leksema		
nomema		
semema		
sema		
atash semasi		
ifoda semasi		
vazifa semasi		

**“BBB” Grafik organayzerlardan** mavzu tahlilida qanday foydalanish mumkin?

Bunda ham doskadan yoki tarqatma materiallardan foydalanish mumkin.

Bilaman	Bildim (mavzudan olingan yangi ma’lumotlar)	Bilishni istayman (qiziqtirgan savollar)
1. So‘z 2. Leksema 3. Semema 4. Semema	1. Leksema lisoniy birlik, so‘z nutqiy birlik 2. Nomema leksemaning tashqi tomoni ekanligi 3. Semema leksemaning ichki tomoni ekanligi 4. Semema sememaning bo‘laklari ekanligini	1. so‘zlar sememalaridagi “yuza” semasini 2. Semema sememalarning sintaktik munosabatini 3. Pragmatik semema sememaning faqat denotatga bo‘lgan munosabatini, 4. Semema so‘z semasi tarkibida tutgan o‘rnini

“Insert” usuli talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirishni yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish qilinadi. Talabalar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi.

(v) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - mening bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

1	2	3	4
v	+	-	?

Masalan, yangi mavzuni o'tishda quyidagi matn talabalarga taqdim etiladi. Ular matn bilan tanishib yuqoridagi jadvalga belgilar qo'yib chiqishadi.

*Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi. Masalan, mustaqil leksemada atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi. Ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksemada atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, bo'ri leksemasi odamga nisbatan qo'llanganda undagi «hayvon», «itsimonlar oilasiga mansub», «yovvoyi» atash semalari kuchsizlanib, «yirtqich», «vahshiy», «qonxo'r» ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.*

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoqlashadilar, guruh bo'yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi. O'qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni talabalarlar to'g'ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

“Sinkveyn”-fnansuz tilida „5 qator“ ma'nosini bildiradi. Sinkveyn-ma'lumotlarni sintezlash, ya'ni bir butunga keltirishga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish –murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechta so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Topshiriq “Sinkveyn”- (beshlik) metodi orqali *ko'z, shirin, gulla, o'n, tez* so'zlariga semantik tavsif bering. [1-98]

Namuna:



	Ko'z
1. Leksemaning tashqi tomoni	k, o', z
2. Leksemaning atash semasi	<i>Tirik mavjudotning ko'rish a'zosi</i>
3. Leksemaning ifoda semasi	<i>Derazaning ko'zi, buloqning ko'zi</i>
4. Leksemaning vazifa semasi	<i>Qora ko'z, qisiq ko'z, ko'z tashladi</i>
5. Shu leksema ishtirok etgan maqol yoki hikmatli gap yozing.	<i>Ko'z qayerda bo'lsa, mehr o'sha yerda bo'ladi.</i>


**Konseptual jadval** bu talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ilmiy terminlarni o'zlashtirishga va oson o'zlashtirib olishlariga yaqindan yordam beradi. Ilmiy terminlarni taqqoslash va maqbulini tanlab ishlatish imkoniyatini beradi. Mavzu bo'yicha berilgan nazariy ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Demak, har bir so'zning semasini topish va izohini berishga o'rgatadi.

**Topshiriq.** So'zning semantik tarkibi bo'yicha konseptual jadval chizing.

So'z	Tushuncha	Leksema	Semema	Sema	Hosila ma'no	Deferensial ma'no	Bog'li ma'no

**Venn diagrammasi** - miya bo'roni va ikki yoki undan ortiq narsalar, voqealar yoki odamlar o'rtasida taqqoslashni yaratish uchun ajoyib vosita.

**Topshiriq "Venn"** diagrammasi orqali nomema va sememaning umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga nomema va sememaning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.[1-94]



**Topshiriq** "Tasdiq-inkor testi" orqali mavzu bo'yicha egallagan bilimlaringizni sinang. Qayd etilgan xulosalarni ma'qullasangiz, javoblar varaqasiga "Ha", inkor etsangiz "Yo'q" javobini yozing.



Fikr	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob	Yo‘q											

1. Leksema nutqiy birlik sanaladi.
2. So‘z lisoniy birlik sanaladi.
3. Leksemaning ichki tomoni nomema deyiladi.
4. Semema semalardan tashkil topadi.
5. Leksemaning mazmuniy tomoni semema deyiladi.
6. Semaning 3 xil turi mavjud.
7. Atash semasi so‘zlovchilarning munosabati bilan belgilanadi.
8. Ifoda semasi borliq bilan belgilanadi.
9. Vazifa semasi leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi.
10. Lisoniy qolipda qanday o‘rinni egallashni bildiruvchi sema vazifa semasidir.
11. Sema darajasiga ko‘ra birlashtiruvchi va farqlovchi semalarga bo‘linadi.
12. Sememani semaga ajratish tilshunoslikda semik tahlil deb yuritiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, grafik organayzerlar o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda ta’lim oluvchini tahlilga jalb etadi, mavzu yo‘nalishida o‘ylashga, fikrlashga undaydi, topqirlikka o‘rgatadi. Bu esa ta’lim beruvchi tomonidan o‘tilayotgan fan mavzularini tahlil etishda hamkorlikda ishlash jarayonini shakllantiradi va ijobiy natija beradi deb o‘ylaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili T.-2020
2. Raxmatullaev Sh., Yusupov T. Sememalarning semalar sostavi va semantik bog‘lanishi. O‘zbek tili va adabiyoti. 1974.
3. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. “Mumtoz so‘z”. Toshkent, 2010.
4. Hojiyev A. Semasiologiya// O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981.
5. Hakimova M. Semasiologiya. Toshkent, 2008, 100-b.
6. Ishmuhamedov R., M. Yuldoshev. Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2013.
7. Lutfullayeva D. va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili (2-qism) T.-2020
8. Maksumova S. Til va adabiyot ta’limi 2020-yil 6-son, 19- bet
9. www.pedagog.uz
10. https://muhaz.org.

#### РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada fan mavzularini o‘qitishda, dars samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiya turlaridan biri grafik organayzerlarning amaliy ahamiyati, qo‘llashning usul va yo‘llari xususida fikr yuritilgan.



**РЕЗЮМЕ**

В данной статье рассматривается практическое значение современных педагогических технологий, методов и способов использования графических органайзеров при преподавании естественнонаучных предметов и повышении эффективности уроков.

**SUMMARY**

This article discusses the practical importance of modern pedagogical technology, methods and ways of using graphic organizers in teaching science subjects and improving lesson efficiency.